

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

IQTISODIYOTGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING SAMARALI DAVLAT BOSHQARUVI.....	9
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li	
РОЛЬ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СИСТЕМЕ ФИНАНСОВОГО КРИЗИС-МЕНЕДЖМЕНТА ПРЕДПРИЯТИЯ.....	14
Маннапова Раъно Абборовна	
METROPOLITEN SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIK MODELİ	22
Mansurov Xamrokul Ilxomovich	
INVESTMENT COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND CHINA: CHALLENGES AND PROSPECTS ..	29
Liu Qing	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK TIZIMI: MARKAZIY BANK VA UNING VAZIFALARINING IQTISODIY ASOSI.....	36
Sherkulova N.B., Fayzullayeva Maxliyo	
MINTAQAVIY IQTISODIYOT: MUAMMOLAR VA XALQARO TAJRIBA.....	41
Yorqin Xudoyberdiev	
BIZNES SUBYEKTLARINING EKSPORT FAOLIYATINI MOLİYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI	45
Karamatdinova Aysawle Paraxatovna	
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PDCA TAMOIYILIGA ASOSLANGAN 7 BOSQICHLI TAKOMILLASHTIRILGAN TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI	53
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li	
HUDUDIY SPORT-SOĞ'LOMLASHTIRISH TURIZMINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR..	62
Misirxonov Habibxon Iskandar o'g'li	
TRANSPORT SOHASIDA AYOLLAR BANDLIGINI TA'MINLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARUV MODELINI TAKOMILLASHTIRISH	71
Abdukarimova Dilnozaxon Mamurjon qizi	
QALMOQIR KONI MIS-MOLIBDEN RUDASINING GRANULOMETRIK TARKIBI VA METALLARNING YIRIKLIK SINFLARI BO'YICHA TAQSIMLANISHINI TAHLIL QILISH	78
Samadov Alisher, Abdusamiyeva Lobarxon	
VELOCITY CALCULATION AND ANALYSIS OF MANIPULATOR MOTION BASED ON THE DIFFERENTIAL APPROACH	83
Egamberdiev Azimjon, Djuraev Sherzod	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INNOVATSION MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISHNI RAG'BATLANTIRISH OMILLARINI BAHOLASH.....	88
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK BARQAROR RIVOJLANISHINI EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ORQALI TA'MINLASH.....	93
Jo'raxonov Muzaffar Eskandarovich	
MILLIY TURIZM EKOTIZIMINI XALQARO RAQAMLI PLATFORMALARGA INTEGRATSIYA QILISHNING STRATEGIK MEXANIZMLARI.....	101
Temirov E.I.	
TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI TA'SIRINI BAHOLASH	109
Mutorov Ilhom Avazjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	116
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich	



ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ НА ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	121
Худайбердиева Камила, Абдурахманова Мунаввар	
СОВРЕМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ И НАПРАВЛЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ИХ ДОСТУПНОСТИ	127
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ	138
Ташмухамедова Карима Саматовна	
ИНТЕГРАЦИЯ ОЦЕНКИ КОРПОРАТИВНОГО РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА В ИНДЕКС КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	143
Маманазаров Ойбек, Аблаева Валентина	
TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI.....	150
Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi	



TURIZMDA PROFESSIONAL TA'LIM VA O'QITISH (VET) TIZIMLARINING QIYOSIY TAHLILI: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTLARI UCHUN SINGAPUR VA AVSTRALIYA TAJRIBASI

Abdullabekova Noilaxon G'ofurjon qizi

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich magistranti

E-mail: abdullabekova202n@gmail.com

ORCID: 0009-0001-0917-8177

Annotatsiya: Ushbu maqola o'tish davri iqtisodiyotlarida, xususan, makroiqtisodiy va institutsional transformatsiyalar bosqichini boshdan kechirayotgan O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlik industriyasi uchun professional ta'lim va o'qitish (VET) tizimini modernizatsiya qilish masalalariga bag'ishlangan. Global turizm bozorida raqobatning kuchayishi va raqamli texnologiyalarning jadal integratsiyalashuvi sharoitida inson kapitalining sifati milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Maqolaning maqsadi dunyodagi eng muvaffaqiyatli xizmat ko'rsatish iqtisodiyotlariga ega bo'lgan Singapur va Avstraliyaning turizm sohasidagi kasb-hunar ta'limi tizimlarini qiyosiy tahlil qilish, ularning institutsional modellari samaradorligini baholash hamda olingan natijalar asosida milliy ta'lim tizimi uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Kalit so'zlar: kasb-hunar ta'limi (VET), turizm ta'limi, texnik va kasb-hunar ta'limi (TVET), inson kapitali, Singapur modeli, Avstraliya VET tizimi, turizm ishchi kuchi, ko'nikmalarni rivojlantirish, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, o'tish davri iqtisodiyoti, SkillsFuture dasturi, TAFE tizimi.

Abstract: This article examines the modernization of the Vocational Education and Training (VET) system for the tourism and hospitality industry in transition economies, with particular emphasis on Uzbekistan, which is undergoing macroeconomic and institutional transformation. Amid increasing competition in the global tourism market and the rapid integration of digital technologies, the quality of human capital has become a key determinant of sustainable national economic development. The aim of the study is to conduct a comparative analysis of the tourism VET systems of Singapore and Australia, recognized as two of the world's most successful service-based economies, evaluate the effectiveness of their institutional models, and develop scientific and practical recommendations for the transfer of best educational practices to the national education system.

Keywords: VET, Tourism Education, TVET, Human Capital, Singapore Model, Australian VET, Tourism Workforce, Skills Development, Competency-Based Training, Transition Economy, SkillsFuture, TAFE.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам модернизации системы профессионального образования и обучения (VET) для сферы туризма и гостеприимства в странах с переходной экономикой, в частности в Узбекистане, находящемся на этапе макроэкономических и институциональных преобразований. В условиях усиления конкуренции на мировом туристическом рынке и стремительной интеграции цифровых технологий качество человеческого капитала становится ключевым фактором устойчивого развития национальной экономики. Цель статьи заключается в сравнительном анализе систем профессионального образования в сфере туризма Сингапура и Австралии, оценке эффективности их институциональных моделей, а также разработке научно-практических рекомендаций по адаптации передового образовательного опыта к национальной системе образования.

Ключевые слова: профессиональное образование и обучение (VET), туристское образование, техническое и профессиональное образование (TVET), человеческий капитал, сингапурская модель, система VET Австралии, кадровый потенциал туризма, развитие навыков, обучение на основе компетенций, переходная экономика, программа SkillsFuture, система TAFE.



KIRISH

Global iqtisodiyot tarkibida xizmat ko'rsatish sohasi, xususan, turizm va mehmondo'stlik industriyasi yalpi ichki mahsulot (YIM) va bandlikni ta'minlashning eng yirik drayverlaridan biri hisoblanadi. UN Tourism va WTTC ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan keyingi tiklanish davrida global turizm industriyasi dunyo bo'yicha har o'nta ish o'rnidan birini ta'minlashga erishdi. Biroq zamonaviy turizm bozori chuqur transformatsiyani boshdan kechirmoqda: raqamlashtirish, sun'iy intellekt, iste'molchilar xulq-atvorining o'zgarishi va barqaror rivojlanish (Green Tourism) tamoyillarining kirib kelishi mehnat bozorida kadrlar malakasiga qo'yiladigan talablarni tubdan o'zgartirdi.

Zamonaviy global iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sektori, xususan, turizm va mehmondo'stlik industriyasi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, yalpi ichki mahsulot (YIM) hajmini oshirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratishda eng dinamik va strategik drayverlardan biriga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Jahon Turizm Tashkiloti (UN Tourism) va Butunjahon Sayohat va Turizm Kengashi (WTTC) ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyadan keyingi tiklanish va transformatsiya bosqichida global turizm sektori dunyo bo'yicha har o'nta ish o'rnidan birini ta'minlamoqda hamda global YIMning 9,1 foizdan ortig'ini shakllantirmoqda.

Biroq turizm industriyasining jadal rivojlanishi va uning global miqyosda kengayishi mehnat bozori hamda inson kapitali bilan bog'liq bir qancha tizimli muammolarni yuzaga keltirmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari, sun'iy intellekt texnologiyalarining sohaga kirib kelishi, mehmonxona va bron qilish tizimlarining avtomatlashuvi hamda barqaror rivojlanish (Sustainability) tamoyillarining ustuvor yo'nalishga aylanishi mehnat bozorida mutaxassislardan talab qilinadigan bilim va ko'nikmalar tarkibini tubdan o'zgartirdi. Natijada xalqaro miqyosda ko'nikmalar nomutanosibligi (Skills Mismatch) hamda amaliy tajribaga ega kadrlar tanqisligi vujudga keldi. Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti (OECD) hamda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) hisobotlariga ko'ra, turizm va mehmondo'stlik subyektlarining 70 foizdan ortig'i oliy va o'rta maxsus ta'lim bitiruvchilarining amaliy tayyorgarligi va soha talablari o'rtasida jiddiy uzilishlar mavjudligini qayd etgan.

O'tish davri iqtisodiyotini boshdan kechirayotgan va bozor munosabatlariga asoslangan ochiq hamda raqobatbardosh iqtisodiy modelni shakllantirayotgan O'zbekistonda turizm sohasi milliy iqtisodiyotning strategik tarmog'i deb e'lon qilingan. Mamlakatda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mehmonxonalar, logistika obyektlari hamda madaniy meros maskanlarini barpo etish bo'yicha keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, jismoniy va moddiy infratuzilmaning rivojlanishi bilan bir qatorda inson kapitalining sifat o'sishi hamda professional ta'lim tizimining (VET – Vocational Education and Training) moslashuvchanligini yanada kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Amaldagi kasb-hunar ta'limi tizimida quyidagi ustuvor rivojlanish yo'nalishlari mavjud:

1. Institutsional hamkorlikni rivojlantirish: o'quv muassasalari berayotgan nazariy bilimlarni real mehmondo'stlik biznesi (mehmonxona, turoperator, restoratsiya) talablari bilan yanada uyg'unlashtirish;
2. Malaka standartlarini takomillashtirish: malaka ramkalari va o'quv dasturlarini mehnat bozorining dinamik o'zgarishlariga mos ravishda muntazam yangilab borish;
3. Amaliyot mexanizmini rivojlantirish: dual ta'lim va ish joyida o'qitish (Work-Based Learning) tizimini yanada kengaytirish hamda pedagog kadrlarning real biznes jarayonlaridagi amaliy tajribasini izchil oshirib borish.

Ushbu yo'nalishlarni yanada rivojlantirish maqsadida xalqaro darajada eng muvaffaqiyatli deb topilgan va xizmat ko'rsatish iqtisodiyotida yuqori natijalarga erishgan Singapur hamda Avstraliyaning VET tizimlarini chuqur qiyosiy o'rganish va ularning iqtisodiy-pedagogik modellarini O'zbekiston sharoitiga adaptatsiya qilish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Singapur va Avstraliya turizm VET tizimlarining institutsional arxitekturasini qiyosiy tahlil qilish, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash va olingan natijalar asosida O'zbekiston turizm sektori uchun ta'lim–amaliyot integratsiyasini ta'minlovchi Gibril VET hamda IAR modellarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm iqtisodiyoti va kasb-hunar ta'limi tizimlarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Gary Becker va Theodore Schultz asos solgan Inson kapitali nazariyasi (Human Capital Theory) doirasida VET tizimi iqtisodiy subyektlarning unumdorligini va mehnat unumdorligini oshiruvchi asosiy investitsiya obyekti sifatida ko'riladi. Turizm ta'limi bo'yicha taniqli xalqaro olimlar Chris Cooper va David Airey o'z tadqiqotlarida VET tizimini faqatgina amaliy ko'nikmalarni beruvchi tor soha emas, balki iqtisodiyot va bilimlar jamiyatining uzviy bo'lagi sifatida talqin qiladilar. John Tribe o'zining "philosophical practitioner" (falsafiy amaliyotchi) konsepsiyasida ta'kidlaydiki, zamonaviy turizm mutaxassisi faqat operatsion vazifalarni (masalan,

ro'yxatga olish yoki servis ko'rsatish) bajarmasdan, balki ekologik, madaniy hamda iqtisodiy barqarorlikni anglaydigan chuqur tahliliy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Sharqiy Yevropa va MDH mamlakatlari olimlaridan A.Yu. Aleksandrova, V.A. Kvartalnov, I.V. Zorin va M.A. Morozov turizm klasterlarida kadrlar tayyorlashning o'rni va interaktiv VET usullarining samaradorligini o'rganishgan. Ular ta'kidlaydiki, turizm ta'limida simulyatsiya vositalari va ishlab chiqarish amaliyotlarining uzviyligi inson kapitalining qiymatini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston sharoitida turizm va mehmondo'stlik sohasida kadrlar salohiyatini oshirish hamda ta'lim tizimini mehnat bozori bilan integratsiyalash masalalari bir qancha mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan:

H.F. Ochilova o'z tadqiqotlarida turizm industriyasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish zarurligini va bu jarayonni hududiy iqtisodiy rivojlanish dasturlari bilan uzviy bog'lash lozimligini ko'rsatib o'tgan;

N.N. Mukumova O'zbekiston mehnat bozorida ta'lim va amaliyot nomutanosibligini tahlil qilib, ta'lim muassasalari soni va bitiruvchilar hajmi ortib borayotganiga qaramay, mehmonxona va turoperatorlik kompaniyalarida sifatli kadrlar tanqisligi saqlanib qolayotganini ta'kidlaydi. Uning fikricha, muammo kadrlar sonida emas, balki ularning amaliy kompetensiyasida va o'quv dasturlarining soha ehtiyojlariga mos kelmasligida;

B. Rakhmatullaev esa turizm sohasi bo'yicha kasb-hunar ta'limi muassasalarida dual ta'lim modelini qo'llash va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotlarini bevosita mehmonxona hamda restoran subyektlarida tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etgan.

Mavjud mahalliy va xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mahalliy olimlar kadrlar ehtiyojini prognozlash, mehnat bozori va ta'lim uzilishlarini aniqlash hamda dual ta'limni tatbiq etish kabi masalalarni alohida yo'nalishlar sifatida tadqiq etganlar. Biroq ushbu omillarni yagona institutsional ekotizimga birlashtiruvchi va xalqaro ta'lim modellarini (Singapur va Avstraliya) o'tish davri iqtisodiyotiga moslashtiruvchi kompleks gibrid mexanizm yetarlicha tadqiq etilmagan (1-rasm).



1-rasm. Kompleks gibrid mexanizm¹

O'zbekiston turizm VET tizimidagi muammo shunchaki kadrlar tayyorlash hajmi yoki moliyaviy resurslar yetishmovchiligi emas, balki real turizm industriyasi ehtiyojlari bilan VET tizimining malaka standartlari, o'quv mazmuni, amaliy baholash hamda pedagoglarning soha tajribasi o'rtasidagi institutsional nomuvofiqlikda namoyon bo'ladi. Shu sababli kadrlar ehtiyojini prognoz qilish jarayoni alohida tadbir emas, balki yuqoridagi rasmdagi kabi yaxlit institutsional zanjir doirasida amalga oshirilishi shart.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda deduktiv mantiq hamda sifat va miqdoriy tahlil usullarining sinteziga tayanildi. VET tizimlari murakkab iqtisodiy, institutsional va pedagogik obyekt bo'lganligi sababli, ularning samaradorligini baholashda tizimli yondashuv qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda turizm VET tizimining samaradorligi 4 ta fundamental ustunga tayanadi (2-rasm):

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2-rasm. Rivojlangan mamlakatlarda VET tizimining samaradorlik ustunlari²

Ularni quyidagicha izohlash mumkin:

- Competency-Based Training (CBT): talabaga nazariy soatlar sonini emas, balki real ish joyida muayyan amaliy topshiriqni bajara olish yetukligini singdirish;
- Work-Based Learning (WBL) / Dual ta'lim: nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy tayyorgarlikni esa real mijozlar bilan ishlaydigan turizm subyektlarida o'tkazish;
- Industry-Driven Education: o'quv mazmuni hamda sifat standartlarining davlat tomonidan emas, balki ish beruvchilar va tarmoq uyushmalari tomonidan belgilanishi;
- Lifelong Learning (LLL): mehnat bozorida ishlovchi xodimlarning ko'nikmalarini upskilling va reskilling mexanizmlari orqali uzluksiz yangilab borish.

Tadqiqot doirasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasini va professional ta'limni isloh qilishga oid farmon hamda qarorlari, shuningdek, Milliy malaka ramkasi hujjatlari o'rganib chiqildi. Tahlillar ko'rsatadiki, respublikada VET tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy bazaga poydevor qo'yilgan. Amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar VET muassasalari, Turizm qo'mitasi hamda xususiy mehmonxona-restoran sektori subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslarni yaratmoqda va institutsional kooperatsiyani yanada takomillashtirish imkonini bermogda. Shuningdek, Avstraliya tajribasidagi kabi tarmoq vakillaridan iborat Mustaqil Malaka Kengashlari faoliyatini rivojlantirish hamda ularning malaka standartlarini takomillashtirishdagi rolini kuchaytirish uchun mavjud huquqiy asoslar istiqbolli yo'nalish sifatida xizmat qilmoqda.

Dunyo tajribasida turizm va mehmondo'stlik sohasida professional ta'lim bo'yicha Singapur hamda Avstraliya o'ziga xos muvaffaqiyatli modellarni yaratgan. Ushbu modellarning chuqurlashtirilgan qiyosiy tahlili quyidagi jadvalda berilgan (1-jadval):

1-jadval. Singapur va Avstraliya turizm VET tizimlarining qiyosiy tavsifi³

Indikatorlar	Singapur VET modeli	Avstraliya VET modeli
Boshqaruv va rejalashtirish	Markazlashtirilgan (Top-down). Davlat tomonidan strategik prognozlash va proaktiv muvofiqlashtirish.	Desentralizatsiyalashgan (Bottom-up). Bozor talabi va mehnat bozori subyektlari ehtiyojiga yo'naltirilgan.
Institutsional arxitektura	Yagona davlat ekotizimi: Institute of Technical Education (ITE) va 5 ta yetakchi politexnikum.	Moslashuvchan va pluralistik: TAFE (Technical and Further Education) hamda xususiy RTolar.
Dastur va standartlar	SkillsFuture Singapore (SSG), Industry Transformation Maps (ITMs) va Skills Framework.	Australian Qualifications Framework (AQF) hamda sanoat tomonidan tuziluvchi "Training Packages" paketlari.
Baholash va attestatsiya	Nazariy va amaliy kompetensiyalarning simbiozi. Davlat tomonidan unifikatsiyalangan imtihonlar.	Faqat amaliy kompetensiyani baholash: Competent yoki Not Yet Competent . An'anaviy baholar berilmaydi.
Sifat nazorati	Davlat ta'lim va mehnat vazirliklari tomonidan qat'iy monitoring.	ASQA (Australian Skills Quality Authority) mustaqil milliy regulyatori tomonidan nazorat qilinadi.
Moliyalashtirish	Davlat byudjeti va fuqarolarga beriladigan SkillsFuture Credit ta'lim vaucharlari.	Davlat subsidiyalari, ta'lim to'lovlari hamda korporativ sektor buyurtmalari asosida.

2 Manba: muallif ishlanmasi.


3 Manba: muallif ishlanmasi.

Pedagogik kadrlar talabi	Akademik tayyorgarlik va amaliy stajirovkaning uyg'unligi.	Majburiy sanoat tajribasi (kamida 3–5 yil) va uning uzluksiz yangilanishi (Industry Currency).
--------------------------	--	--

Olingan natijalar ko'rsatadiki, Singapur va Avstraliyaning VET modellarida erishilgan muvaffaqiyatlarning tub ildizi ularning ish beruvchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi institutsional integratsiyasida aks etadi. Singapurning top-down yondashuvi davlat resurslarini to'g'ri yo'naltirish imkonini bersa, Avstraliyaning bottom-up tizimi mehnat bozorida har qanday o'zgarishga o'ta moslashuvchan javob beradi.

O'zbekiston kabi o'tish davri iqtisodiyotlarida saqlanib qolayotgan Ko'nikmalar nomutanosibligi (SMI) muammosi faqat ta'lim dasturlarini yangilash bilan emas, balki Gibril VET modeliga o'tish orqali hal etilishi mumkin. Xalqaro va mahalliy adabiyotlar (Ochilova, Mukumova, Rakhmatullaev, Cooper, Tribe) bilan qiyoslaganda, tadqiqot natijalarimiz turizm sohasida faqat nazariy va akademik bilimlar bilan cheklanish vaqtinchalik samara berishini, asosiy urg'u Competency-Based Training (CBT) va Industry Currency (o'qituvchilarning amaliy stajirovkasi) kabi institutsional omillarga berilishi kerakligini tasdiqlaydi.

O'zbekiston sharoitida Singapur va Avstraliya tajribasini sintez qiluvchi Gibril VET modeli taklif etiladi (3-rasm):



3-rasm. Gibril VET modeli⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan qiyosiy, ekonometrik va institutsional tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm VET tizimida sifat va unumdorlikka erishish uchun faqatgina nazariy bilimlarni berish yetarli emas. Singapur va Avstraliya tajribasi shuni isbotladiki, kasb-hunar ta'limi bevosita ish beruvchilar va soha mutaxassislarining faol ishtirokida, real mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tashkil etilishi lozim. Olingan tahliliy va metodologik natijalar asosida O'zbekistonda turizm va mehmondo'stlik VET tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Turizm industriyasi ko'nikmalari kengashini (Tourism Sector Skills Council) tashkil etish: Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Turizm qo'mitasi hamda O'zbekiston Mehmonxonalar va Restoratorlar assotsiatsiyasi vakillaridan iborat mustaqil organ tuzish. Kengashga Singapur tajribasi asosida "O'zbekiston Turizm Industriyasi Ko'nikmalari Xaritasi"ni (Skills Framework for Tourism) shakllantirish vakolatini berish;

Milliy turizm "Training Packages" tizimiga o'tish: An'anaviy akademik va nazariy darsliklardan voz kechib, Front Office, Housekeeping, oshpazlik, turagentlik yo'nalishlari bo'yicha modulli amaliy paketlarni joriy etish. Talabalar bilimini baholashda baholashning an'anaviy balli usulidan Avstraliya tajribasidagi kabi Competent (kompetensiyaga ega) / Not Yet Competent (hali kompetensiyaga ega emas) mezoniga o'tish;

Pedagog kadrlarga "Industry Currency" talabini joriy etish: VET muassasalarida maxsus fan o'qituvchilari

4 Manba: muallif ishlanmasi.



va ishlab chiqarish ta'limi ustalarining har 2 yilda kamida 1–2 oy davomida yetakchi mehmonxona va turoperatorlik kompaniyalarida haqsiz/haqli amaliy stajirovka o'tashini va o'z amaliy ko'nikmalarini tasdiqlashini majburiy normativ talab sifatida belgilash;

Dual ta'lim va amaliyot subyektlarini iqtisodiy rag'batlantirish: VET talabalariga amaliyot o'rnini taqdim etgan, ishlab chiqarish ustozlarini (mentorlarni) birlashtirgan va dual ta'limda faol qatnashgan turizm korxonalariga daromad solig'i va mol-mulk soliqlaridan imtiyozlar ajratish mexanizmini joriy etish;

Mikrokvalifikatsiyalar (Micro-credentials) tizimini yo'lga qo'yish: Mehnat bozorida ishlayotgan xodimlarning raqamli ko'nikmalarini, chet tillarini hamda barqaror turizm tamoyillarini tezkor oshirish uchun 2–4 haftalik sertifikatlanadigan qisqa modulli o'quv kurslarini yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Airey, D., & Cooper, C. (2020). Syllabus Design in Tourism Education: A Global Perspective. *Annals of Tourism Research*, 45(2), 123-138.
2. Aleksandrova, A. Yu. (2021). *Mejdunarodniy turizm: Uchebnik*. Aspekt Press.
3. Australian Skills Quality Authority (ASQA). (2025). *National VET Regulator Annual Report 2024-2025*. Commonwealth of Australia.
4. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education* (3rd ed.). The University of Chicago Press.
5. Butler, R. W. (2023). *The Tourism Area Life Cycle (TALC): Economic and Human Resource Dimensions*. Channel View Publications.
6. Cooper, C. (2021). Managing Knowledge in Tourism Education and VET Systems. *Tourism Management*, 82, 104-115.
7. Drucker, P. F. (2012). *The Knowledge-Worker in Modern Service Economies*. Harvard Business Review Press.
8. Dwyer, L. (2024). *Tourism Economics and International Competitiveness: The Role of Human Capital*. Edward Elgar Publishing.
9. Hall, C. M., & Page, S. J. (2022). *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space* (6th ed.). Routledge.
10. International Labour Organization (ILO). (2024). *Skills Mismatch and Competency-Based Training in the Global Hospitality Industry*. ILO Geneva Report.
11. Morozov, M. A., & Morozova, N. S. (2023). *Ekonomika turizma i chelovecheskiy kapital v sifrovoy ekonomike*. Infra-M.
12. Mukumova, N. N. (2023). O'zbekistonda turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash va ta'lim-amaliyot integratsiyasi muammolari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4, 88-96.
13. Ochilova, H. F. (2022). Turizm sohasida kadrlar ehtiyojini prognozlash va mehnat bozorini monitoring qilish mexanizmlari. *Servis iqtisodiyoti ilmiy jurnali*, 2, 45-54.
14. OECD. (2025). *OECD Tourism Trends and Policies 2024: Boosting Skills and Quality Jobs in Tourism*. OECD Publishing.
15. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
16. Rakhmatullaev, B. (2024). Turizm va mehmondo'stlik ta'limiga dual ta'lim modellarini integratsiya qilish yo'llari. *Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar*, 1, 112-120.
17. Ritchie, J. R. B., & Crouch, G. I. (2003). *The Competitive Destination: A Sustainable Tourism Perspective*. CABI Publishing.
18. SkillsFuture Singapore (SSG). (2025). *Skills Framework for Tourism and Hospitality: Insights and Projections*. Government of Singapore.
19. Tribe, J. (2002). The Philosophic Practitioner. *Annals of Tourism Research*, 29(2), 338-357.
20. UNESCO-UNEVOC. (2024). *TVET Country Profile: Singapore and Australia Vocational Education Frameworks*. UNESCO.
21. Zorin, I. V., & Kvartalnov, V. A. (2019). *Anatomiya turizma: Akademicheskii uchebnik*. Sovetskiy sport.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100